

Hech kim e'tibordan chetda emas

2023 22 Iyun

Uzbekistan Airways sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi hamda xodimlar va ularning farzandlari uchun ko'plab madaniy-ma'rifiy, sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazib turadi. 16-18-iyun kunlari aviakompaniya tomonidan "Ugam oromgohi" sog'lomlashtirish majmuasiga ikki kunlik sayohat tashkil etildi.

Tadbirda imkoniyati cheklangan bolalari bo'lgan va ikkitadan ortiq farzandlari bor boquvchisini yo'qotgan aviakompaniya xodimlari ishtirop etdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun tashkil qilingan tadbir kadrlar bilan ishlash Boshqarmasining ijtimoiy siyosat bo'limi tashabbusi bilan o'tkazildi. "Uzbekistan Airways" AJ kasaba uyushmasi qo'mitasi esa ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatladi va sayohatni to'liq moliyalashtirdi. Unda bolalarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, rivojlantirish, o'quv va sport dasturlari, to'g'ri ovqatlanish bo'yicha sport-sog'lomlashtirish tadbir va seminarlari o'tkazildi.



Bo'stonliq tumanidagi "Ugam oromgohi" sog'lomlashtirish majmuasi hududida dastur doirasida bolalar turli sport o'yinlari va mashg'ulotlarida ishtirok etdilar. Tashkiliy qo'mitaning asosiy vazifasi ushbu loyiha ishtirokchilari o'rtasida ma'naviy, ruhiy va jismoniy "muvozanat"ni qo'llab-quvvatlash edi. Barcha mashg'ulotlar ochiq havoda va hovuzda o'tkazildi, bu esa ishchilarning bolalariga ichki stressni kamaytirishga, zo'riqishlarni yengishga va dam olishga yordam berdi. Jismoniy va ruhiy holatni yaxshilash maqsadida bolalar aktyorlik mahoratini namoyish etish dasturda ishtirok etib, o'z iste'dodlarini namoyish etishdi. Tadbir yakunida ijtimoiy loyihaning barcha ishtirokchilari Uzbekistan Airways aviakompaniyasidan esdalik sovg'alarini oldilar.



Ishtirokchilar kasaba uyushmasi qo'mitasi va Uzbekistan Airways aviakompaniyasiga ushbu sayohatni tashkil etgani uchun samimiy minnatdorchilik bildirdi:

- Ajoyib hordiq, bolalarga ham, ota-onalarga ham birdek yoqqan sport va ko'ngilochar tadbirlar, ajoyib va kutilmagan sovg'alar hamda quvonchga to'la kayfiyat, sabr-toqatingiz va sayohatni tashkil etishdagi mehnatingiz uchun rahmat aytaman. Bizning oilamiz bu tog' sanatoriyasiga birinchi marta tashrif buyurishi. Olam-olam his-tuyg'ular va ijobiy kayfiyat, hammasi uchun tashakkur! – deya bortkuzatuvchi Borisenko Yu.B.kasaba uyushma qo'mitasi va dastur tashkilotchilariga alohida minnatdorchilik bildirdi.

Aviakompaniya kasaba uyushmasi shu kabi tadbirlarni tashkil etishda davom etadi hamda xodimlar va ularning yaqinlarini qo'llab-quvvatlaydigan, qulaylik yaratadigan va himoya qilishga yordam beradigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

